



Yosh oilalar bilan ijtimoiy ish

O'qituvchi: A'zamova Zarnigor

Farg'ona Davlat Universiteti

O'qituvchi: Teshaboyeva Nigora

O'zbekiston Farg'ona

ABSTRACT

Maqolani yozishdan maqsad O'zbekiston Respublikasida yashovchi oila bo'sag'asida turgan yoshlar va yosh oilalar haqida tushuncha yozish.

Hozirda yosh oilalarga berilayotgan sharoitlar, imtiyozlar, huquq va erkinliklar, Qonun ustuvorligi va oila muqaddasligi haqida yanada yorqinroq yoritiladi. Maqolada yosh va kam taminlangan oilalarga berilayotgan imtiyozlar, ijtimoiy taminot haqida so'z yuritilgan. O'zbekiston va Jahonda oilalarning ajralish darajasi, statistikaga ham alohida to'xtalamiz.

ARTICLE INFO

Received: 8th January 2023

Revised: 8th February 2023

Accepted: 22th March 2023

KEY WORDS: Qonun, Konstitutsiya, ijtimoiy ishda yosh oila tushunchasi, tarix, Oilaga psixiologik qarashlar, statistika

O'zbekiston Respublikasining farmoni Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.

Yosh va kam ta'minlangan oilalarga :

1. Subsidiya;
2. Maqsadli va imtiyozli kreditlar;
3. Ipoteka kreditlash;
4. Davlat va kommunal uy-joylarini ijarga berish va mexanizmlari kabi imtiyozlarga egadurlar.

Avvalo oilaga ta'rif bersak oila-bu davlatning kichik bo'g'ini hisoblanadi.

Insoniyat tarixida oila har bir shaxs hayotida hal qiluvchi o'rinni egallagan. Uning mustahkamligi jamiyat mustahkamligining garovidir. Faylasuf N.Basov qarashlarida "Oila kichik ijtimoiy guruh sifatida nikoh qon munosabatlari insonning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga asoslangan odamlar jamoati" deyilgan.

Er va xotin ya'ni nikohlangan yoshlarning turmushlari 10 yildan oshmagan va yoshlari 30 yoshdan oshmagan bo'lsa, yosh oila hisoblanadi. Oila insonning suyanchi sanaluvchi muqaddas dargoh bo'lsada, ba'zi yosh juftliklar o'z oilaviy munosabatlarini saqlab qola olmaydi. Shu bois oilaviy ajrimlar bugungi kunda dolzarb muammoga aylanib ulgurdi. Muammo yechimi sifatida ajralish tanlanadi. Statistika nazar tashlasak, dunyo bo'yicha oilalarning ajralish darajasi Hindiston 1%, Chili 3%, Turkiya 22% kabi davlatlarda eng past hisoblanadi. Luksemburg ajralishlar bo'yicha eng yuqori o'rinni egallagan; har 100 ta oilaning 87 tasi ajralib ketadi. Hindistonda ajralish darajasining pastligi nikoh faqat ikki yoshning o'rtasida emas balki ikki oila o'rtasida rishtalarni vujudga keltirishi kimdir ajralishni hohlasa ham oilaviy or-nomus, ota-ona hurmati sababli bu yo'ldan qaytishi bilan izohlanadi.

Oilalarni sifatli qo'llab-quvvatlash ijtimoiy ishning asosidir. UNICEF vazirlik va uning hududiy bo'limlari bilan ijtimoiy xodimlar salohiyatini oshirish va hamjamiyat darajasida oilalarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash bo'yicha hamkorlik qilmoqda. UNICEF Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi va Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi bilan hamkorlikda mutaxassislar uchun O'zbekistondagi oilalar va bolalarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida treninglar o'tkazadi. Bu esa ijtimoiy qadriyatlar va keys

menejmenti standartlariga asoslangan holda ijtimoiy ish amaliyotining tarkibiy qismlarini qamrab oladi va shu o'rinda mahorat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Nazariyaga yondashadigan bo'lsak, oila bu ijtimoiy institutlar, oila kichik sotsial guruhlardan iborat bo'lib , uning a'zolarini nikoh yoki qarindoshlik rishtalarini ma'naviy ma'suliyati bilan o'zaro bog'liq. Oila rivojlanishini rejalashtirishda genogrammadan foydalaniladi.

Yaqin tarixda yashagan olimlar Aersu, Djermen, Xartmen va Meyr oila muhitini ijtimoiy faoliyat sohasida ekologik konsepsiya ishlab chiqishgan. Oila nikoh va tug'ilganlikka asoslangan kichik guruhdir.

2022-yilning avgust oyida jami 32366 ta nikoh qayd etilgan bu ma'lumot mamlakatimizga tegishli albatta.

Men o'ylaymanki, yosh oila turmush qurib to qo'sha-qarigunga qadar bosib o'tiladigan yo'lda avvalo sabr, bir-birini tushunish va o'zaro mehr bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblayman. To'g'ri, qaysidir ma'noda bu shunchaki falsafiy qarashlar bo'lishi mumkin. Ammo nikoh bu ma'suliyat demakdir. Bugun oila qurib, ertaga yoqmasa ajrashishni yomon ta'riflari ko'pki qanday nom bilan atashga ham hayronman. Zeroki, ajrashish so'zi tilga olinsa, arsh larzaga kelarkan.

So'z yakunida nima demoqchiman; mavzuyimiz "Yosh oilalar bilan ijtimoiy ish ekan , O'zbekistonda 2,5 yarmidan oshig'i yosh oilalardir. Yosh oila degani endigina hayot boshladi degani. Yosh oilalarga ijtimoiy, iqtisodiy, sog'liq tomonidan deymizmi o'zlarini tiklab olishga davlat yordam berdi albatta. Va lekin, yon atrofdagi (qaynona, qaynota, qaynisingil, qaynog'alar) yosh oilani tushunib ularni qo'llab quvvatlashsa, kelajakda InshaAlloh go'zal oila, go'zal oiladan esa go'zal kelajak yaraladi.

Nikoh yoshi qonunda 18 yosh etib belgilangan. Lekin tibbiy sog'liq tomonidan 22 yosh hisoblanadi. Ijtimoiy hodim sifatida biz yosh oilalarga psixologik, pedagogik kabi yordamlardan boshlab to ajrimlar oldini olishgacha harakatlarni olib boramiz.

Yosh oilalar bilan ijtimoiy ish hodimi – yoshlarni, ishchanlik faoliyatini oshirish, oilaviy dam olish yosh oilalarni bandligini ta'minlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, reprodaktiv salomatlik, xavfsiz onalik, yosh kam taminlangan oilalar va juda ko'plab sharoitlar yaratilganligi yosh oilalar uchun bu baxtdir. Bir so'z bilan aytganda shunday davlarda, shunday mahalda yashashda shukronalik bo'lmog'i lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Konstitutsiya olamiga sayoxat – Toshkent 2012-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Lug'at ma'lumotnoma – Toshkent 2013-yil.
3. O'zbekistn tarixi – Toshkent 2019-yil
4. BMTning faoliyatidagi 60 yo'nalishi hayotni yanada yaxshilanish uchun – 2006-yil sentabr.
5. Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari – Toshkent – 2004-yil
6. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini shakllantirishning muhim jihatlari. *Интернаука*, (7-2), 91-93.
7. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). The world in reforming the pension system use of existing pension system models in practice. In *НАУКА СЕГОДНЯ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ* (pp. 50-51).
8. Аъзамова, З., & Турсуналиева, Э. (2022). РОЛЬ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПЕНСИОННОЙ СИСТЕМЫ В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 740-745.
9. Azamova, Z., & Tursunaliyeva, E. (2022). Reintegration of Persons Returning from Labor Migration and Their Employment. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 13, 122-126.
10. Tursunaliyeva, E., & Azamova, Z. (2022). Reintegration of Persons Returning from Labor Migration and Ensuring Their Employment. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 11, 171-175.
11. A'ZAMOVA, Z. A. R. N. I. G. O. R., & FOZILOV, O. VOYAGA YETMAGAN BOLALARNI HUQUQ VA ERKINLIK LARI. *ИНТЕРНАУКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука"*, 91-93.

12. A'Zamova, Z., & Sharipova, K. (2022). YETIM VA OTA-ONA QARAMOG 'IDAN MAHRUM BO 'LGAN BOLALARNI MAKTABLARDA SIFATLI TA'LIM VA TARBIYA OLISHDAGI MUAMMOLARI. *Research Focus*, 1(2), 301-306.
13. Tursunaliyeva, E., Rohila, A., Nilufar, E., & Madina, T. (2023). MECHANISMS OF REHABILITATION AND TRAINING OF PERSONS WITH DISABILITIES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 343-346.
14. Tursunaliyeva, E., & Kubayeva, I. (2023). RISK FACTORS IN RELATIVE ATTITUDE TO CHILDREN. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 347-350.
15. Shahnoza, M., & Umida, D. (2023). SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(14), 140-143.